**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**
**BUYRUG‘I**

# 2024/2025-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi 56-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (ro‘yxat raqami 1778, 20.03.2008-yil) Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2024/2025-o‘quv yilida o‘quvchilarning yakuniy attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkaziladigan fanlar ro‘yxati va imtihon o‘tkazish shakllari 1-ilovaga muvofiq;

Umumta’lim fanlari hamda xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Kasbiy ta’lim fani o‘qitilishi boshlangan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

9- va 11-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlari (keyingi o‘rinlarda — imtihonlar) 2025-yil 26-maydan 15-iyungacha o‘tkazilsin (Jismoniy tarbiya va kasbiy ta’lim fani bundan mustasno).

2-ilovada keltirilgan chet tili fanlari hamda umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risida davlat namunasidagi sertifikati bo‘lgan o‘quvchilar ilovada keltirilgan baholash asosida baholanib imtihondan tegishli fanlar fandan ozod qilinadi;

tegishli fanlar bo‘yicha, yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, qur’a tashlash yo‘li bilan (yozma shaklda o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha) shakllantirilgan variantlar orasidan 2 ta variant tanlanadi;

tanlangan 2 ta imtihon variantlari vazirlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi va ushbu variantlar asosida respublika bo‘yicha barcha bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasini topshiradi.

3. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova):

Toshkent viloyati maktabgacha va maktab talimi boshkarmasi
K/R: 286 2025-yil 28 -fevral

2025-yilning 25-fevral sanasiga qadar yakuniy attestatsiya o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha topshiriqlar spetsifikatsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

2025-yilning 25-martiga qadar umumiy o‘rta ta’lim maktablari va Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab va maktab-internatlarining bitiruvchi sinf o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan fanlar spetsifikatsiyasi asosida yakuniy attestatsiya o‘tkaziladigan fanlar (og‘zaki va yozma) savollarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish hamda baholash mezonlarini tayyorlash;

2025-yilning 28-martiga qadar imtihon materiallarining bazasini ta’lim beriladigan barcha tillarga tarjima qilish uchun Respublika ta’lim markaziga taqdim etish;

ishlab chiqilgan nazorat materiallari asosida imtihon variantlarini shakllantirish;

yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon materiallarining bazasini tayyorlashda kreativ va mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar kiritilishini inobatga olish;

2025-yilning 20-apreliga qadar yakuniy davlat attestatsiyasida o‘quvchilarning bilimlarini shaffof va adolatli baholash uchun maxsus platforma yaratish choralarini ko‘rish;

2025-yilning may oyida yaratilgan platformani o‘rnatilgan tartibda aprobatsiyadan o‘tkazish, platforma bilan ishlash uchun ekspertlar guruhini shakllantirish, ular uchun platformadan foydalanish bo‘yicha o‘quv-trening o‘tkazish;

yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun fanlar kesimida nazorat materiallari ishlab chiqish hamda imtihon materiallari bazasini ta’lim beriladigan barcha tillarga tarjima qilish va ekspertizadan o‘tkazish shuningdek jarayonni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar smetasini taqdim etish vazifalari yuklansin.

4. Respublika ta’lim markazi (D.Norboyeva), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) 2025-yilning 5-apreliga qadar taqdim etilgan imtihon materiallari bazasini ta’lim beriladigan barcha tillarga tarjima qilish va ekspertizadan o‘tkazish vazifalari yuklatilsin.

5. O‘quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko‘rsatish boshqarmasi (O.Zokirov) 2025-yil 24-fevralga qadar bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasiga tayyorlanishlari uchun ishlab chiqilgan fanlar spetsifikatsiyasini va imtihon materiallari hamda baholash mezonlarini Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy veb-saytida e’lon qilish uchun Axborot xizmatiga taqdim etsin.

6. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining davlat ta’lim standartlari va kasbning ta’lim dasturi asosida egallashi lozim bo‘lgan malaka talablariga muvofiq bilimlarini sinovdan o‘tkazish maqsadida imtihonlari 1-ilovada keltirilgan fanlardan tashkil etiladi.

7. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 9-sinf o‘quvchilari uchun Jismoniy tarbiya fanidan imtihonlar 2024-yil 1-6-may kunlari malakali tibbiyot xodimlarining

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: KX79690031

nazorati ostida oʻtkazilsin (jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar hamda skolioz bilan kasallangan bolalar uchun sanatoriy turidagi maktab-internatlar bundan mustasno).

8. 2023/2024-oʻquv yilidan Kasbiy ta'lim fani oʻqitilishi boshlangan 3-ilovadagi umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida 2024/2025-oʻquv yilida 11-sinflar uchun Kasbiy ta'lim fanidan yakuniy imtihon joriy yil 17-20-iyun kunlari amaliy imtihon shaklida oʻtkazilsin.

9. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

imtihonlarga puxta tayyorgarlik koʻrishlari uchun sharoitlar yaratish;

imtihonlar shaffof, adolatli, xolis oʻtkazilishini ta'minlash, imtihonlarning oʻz muddatlarida oʻtkazilishini nazoratga olish;

tabiiy va texnogen sabablarga koʻra belgilangan muddatlarda imtihon oʻtkazilishining imkoniyati boʻlmagan umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida imtihonlarni tuman (shahar) maktabgacha va maktab boʻlimlari bilan kelishgan holda boshqa kunda oʻtkazishga ruxsat berilganligini ma'lumot va ijro uchun qabul qilish;

imtihonlarning natijalari hamda imtihonga oid ma'lumotlarni umumlashtirib, 2024-yilning 3-iyuliga qadar Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

10. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) 2025-yilning 10-iyuliga qadar bitiruv sinflarida yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari boʻyicha tahliliy ma'lumotni Oʻquvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini koʻrsatish boshqarmasi (O.Zokirov)ga taqdim etsin.

11. Axborot xizmati (D.Sobirova) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) bilan birgalikda taqdim etilgan fanlar spetsifikatsiyasini 2025-yil 25-fevral va imtihon materiallarini 2025-yil 10-aprel sanasiga qadar vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilsin va joylashtirsin.

12. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi oʻrinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil " 20 "-fevral,
65-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 20 ”-fevraldagi
65-sonli buyrug‘iga
1-ilova

## Yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkaziladigan fanlar ro‘yxati va imtihon o‘tkazish shakllari

<table>
<tr><th colspan="2">9-sinf uchun</th></tr>
<tr><td>Ona tili va adabiyot (ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan sinflar uchun) / Davlat tili (ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan sinflar uchun)</td><td rowspan="2">Yozma shaklda</td></tr>
<tr><td>Matematika</td></tr>
<tr><td>O‘zbekiston tarixi</td><td>Yozma/og‘zaki shaklda</td></tr>
<tr><td>Jismoniy tarbiya</td><td>Amaliy shaklda</td></tr>
<tr><th colspan="2">11-sinf uchun</th></tr>
<tr><th colspan="2">Majburiy fanlar</th></tr>
<tr><td>Ona tili va adabiyot (ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan sinflar uchun) / Davlat tili (ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan sinflar uchun)</td><td rowspan="3">Yozma shaklda</td></tr>
<tr><td>Matematika (Asosiy) / Matematika (Chuqurlashtirilgan)*</td></tr>
<tr><td>Tarix</td></tr>
<tr><th colspan="2">Tanlov fanlar**</th></tr>
<tr><td>Ona tili va adabiyoti (qoraqalpoq, rus, qozoq, turkman, tojik, qirg‘iz tilida ta’lim bo‘lgan sinflar uchun)</td><td rowspan="6">Yozma shaklda</td></tr>
<tr><td>Biologiya</td></tr>
<tr><td>Fizika</td></tr>
<tr><td>Kimyo</td></tr>
<tr><td>Davlat huquq asoslari</td></tr>
<tr><td>Geografiya</td></tr>
<tr><td>Chet tili</td><td>Yozma/og‘zaki shaklda</td></tr>
</table>

*Izoh:*

*Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi umumta’lim maktablari uchun davlat tili imtihoni* ***qoraqalpoq tilida*** *topshirish tavsiya etiladi.*

*11-sinf bitiruvchilari* ***3 ta*** *majburiy va* ***2 ta (****Matematika (Chuqurlashtirilgan) variantini tanlagan o‘quvchilar uchun* ***1 ta)*** *tanlov fanlaridan imtihonlar topshirishlari kerak bo‘ladi.*

** Matematika fanidan 11-sinf bitiruvchilari berilgan* ***2 ta*** *variantdan birini tanlashlari mumkin. Bunda:*

***Matematika (Asosiy):*** *Umumta’lim dasturidagi asosiy bilim va ko‘nikmalar baholanadi.*

***Matematika (Chuqurlashtirilgan):*** *Umumta’lim chuqurlashtirilgan dasturidagi bilim va ko‘nikmalar baholanadi.*

***11-sinfda o‘quvchining ixtiyoriga ko‘ra tanlov fanlar yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishidan bir oy oldin uning arizasiga ko‘ra tanlanadi;*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 20 ”-fevraldagi
65-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

**Xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar**
RO‘YXATI

| T/r | Xalqaro tan olingan sertifikatlar nomi* |
|---|---|
| | **Ingliz tili bo‘yicha** |
| 1. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| 2. | International English Language Testing System (IELTS-Academic) |
| 3. | Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT) |
| 4. | Test of English as a Foreign Language (TOEFL ITP) |
| 5. | Cambridge Assessment English (FCE, CAE, CPE) |
| | **Fransuz tili bo‘yicha** |
| 5. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| 6. | Diplôme d’Etudes en Langue Française (DELF) |
| 7. | Diplôme Approfondi de Langue Française (DALF) |
| 8. | Test de Connaissance du Francais (TCF) |
| | **Nemis tili bo‘yicha** |
| 8. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| 9. | Goethe-Zertifikat |
| 10. | Deutsches Sprachdiplom (DSD I) |
| 11. | Deutsches Sprachdiplom (DSD II) |
| 12. | Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF) |
| | **Ispan tili bo‘yicha** |
| 13. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| 14. | Diplomas de Español como Lengua Extranjera (DELE) |
| 15. | Servicio Internacional de Evaluación de la Lengua Española (SIELE) |
| | **Italyan tili bo‘yicha** |
| 16. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| 17. | Certificato di Conoscenza della Lingua Italiana (CELI) |
| 18. | Certificazione di Italiano come Lingua Straniera (CILS |
| | **Arab tili bo‘yicha** |
| 19. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| 20. | AT Tanal Al Arabi |
| | **Xitoy tili bo‘yicha** |
| 21. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| 22. | Hanyu Shuiping Kaoshi (HSK) |
| | **Yapon tili bo‘yicha** |
| 23. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| | **Koreys tili bo‘yicha** |
| 24. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| 25. | Test of Proficiency in Korean (TOPIK II) |
| | **Turk tili bo‘yicha** |
| 26. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |
| 27. | Türkçe Yeterlik Sinavi (TYS) |
| | **Pushtu, Dariy, Urdu, Hindiy, Uyg‘ur, Fors tillari bo‘yicha** |
| 28. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat |

**Umumta’lim fanlari bo‘yicha milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar**
RO‘YXATI

| T/r | **Umumta’lim fanlari bo‘yicha milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nomi**** |
|---|---|
| | **Matematika bo‘yicha** |
| 1. | Umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy sertifikat |
| 2. | Cambridge International A-LEVEL (Mathematics — 9709) |
| | **Fizika bo‘yicha** |
| 3. | Umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy sertifikat |
| 4. | Cambridge International A-LEVEL (Physics — 9702) |
| | **Kimyo bo‘yicha** |
| 5. | Umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy sertifikat |
| 6. | Cambridge International A-LEVEL (Chemistry — 9701) |
| | **Biologiya bo‘yicha** |
| 7. | Umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy sertifikat |
| 8. | Cambridge International A-LEVEL (Biology — 9700) |
| | **Tarix bo‘yicha** |
| 9. | Umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy sertifikat |
| | **Geografiya bo‘yicha** |
| 10. | Umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy sertifikat |
| | **Ona tili va adabiyot bo‘yicha** |
| 11. | Umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy sertifikat |

*Izoh:*

***** *ilovada ko‘rsatilgan xorijiy til fanidan* ***B*** *yoki* ***undan yuqori*** *darajadagi sertifikatga ega bo‘lgan o‘quvchilar yakuniy imtihonni topshirishdan ozod etilib, mazkur fandan ularga* ***5 baho*** *beriladi;*

****** *ilovada ko‘rsatilgan umumta’lim fanidan milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘quvchilar yakuniy imtihonni topshirishdan ozod etilib, mazkur fandan ularga* ***A, A+*** *uchun* ***5 baho****,* ***B, B+*** *uchun* ***4 baho*** *hamda* ***C, C+*** *uchun* ***3 baho*** *beriladi;.*

*amal qilish muddati cheklanmagan (belgilanmagan) sertifikatlar uchun sertifikat olingan kundan boshlab* ***uch yil davomida*** *qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyoz qo‘llaniladi.*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil “ 20 ”-fevraldagi
65 sonli buyrug‘iga
3-ilova

**2024-2025 o‘quv yili yakunida Kasb-hunar yo‘nalishi bo‘yicha yakuniy imtihon bo‘lib o‘tadigan ta’lim muassasalari**
**RO‘YXATI**

| T/r | | Tuman (shahar) nomi | Ta’lim muassasasi nomi |
|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha** | | | |
| 1 | 1 | Nukus shahar | 2-maktab |
| 2 | 2 | Amudaryo tumani | 76-maktab |
| 3 | 3 | Beruniy tumani | 69-maktab |
| 4 | 4 | Bo‘zatov tumani | 4-maktab |
| 5 | 5 | Qarao’zak tumani | 33-maktab |
| 6 | 6 | Qonliko‘l tumani | 4-maktab |
| 7 | 7 | Kegeyli tumani | 14-maktab |
| 8 | 8 | Mo‘ynoq tumani | 2-maktab |
| 9 | 9 | Nukus tumani | 1-maktab |
| 10 | 10 | Taxiatosh tumani | 1-maktab |
| 11 | 11 | To’rtkul tumani | 44-maktab |
| 12 | 12 | Xo’jayli tumani | 14-maktab |
| 13 | 13 | Chimboy tumani | 38-maktab |
| 14 | 14 | Ellikqal’a tumani | 6-maktab |
| **Andijon viloyati bo‘yicha** | | | |
| 15 | 1 | Andijon shahar | 55-maktab |
| 16 | 2 | Andijon tumani | 55-maktab |
| 17 | 3 | Asaka tumani | 1-maktab |
| 18 | 4 | Baliqchi tumani | 54 maktab |
| 19 | 5 | Buloqboshi tumani | 18-maktab |
| 20 | 6 | Jalaquduq tumani | 8-maktab |
| 21 | 7 | Izboskan tumani | 37-maktab |
| 22 | 8 | Marhamat tumani | 14-maktab |
| 23 | 9 | Oltinko‘l tuman | 6-maktab |
| 24 | 10 | Paxtaobod tumani | 69- IDUM |
| 25 | 11 | Qo‘rg‘ontepa tumani | 3-maktab |
| 26 | 12 | Shahrixon tumani | 3-maktab |
| 27 | 13 | Xo‘jaobod tumani | 14-maktab |
| **Buxoro viloyati bo‘yicha** | | | |
| 28 | 1 | Buxoro shahar | 4-IDUM |
| 29 | 2 | Kogon shahar | 9-maktab |
| 30 | 3 | Buxoro tumani | 18-maktab |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 31 | 4 | Vobkent tumani | 8-maktab |
| 32 | 5 | Jondor tumani | 21-maktab |
| 33 | 6 | Kogon tumani | 11-maktab |
| 34 | 7 | Olot tumani | 35-maktab |
| 35 | 8 | Peshku tumani | 1-IDUM |
| 36 | 9 | Romitan tumani | 1-IDUM |
| 37 | 10 | Shofirkon tumani | 11-maktab |
| 38 | 11 | Qorako’l tumani | 53-maktab |
| 39 | 12 | Qorovulbozor shahar | 4-maktab |
| 40 | 13 | G‘ijduvon tumani | 60-IDUM |
| **Jizzax viloyati bo‘yicha** | | | |
| 41 | 1 | Arnasoy tumani | 8-maktab |
| 42 | 2 | Baxmal tumani | 1-maktab |
| 43 | 3 | G‘allaorol tumani | 78-maktab |
| 44 | 4 | Do‘stlik tumani | 1-maktab |
| 45 | 5 | Sharof Rashidov tumani | 13-maktab |
| 46 | 6 | Zarbdor tumani | 1-maktab |
| 47 | 7 | Zafarobod tumani | 10-maktab |
| 48 | 8 | Zomin tumani | 50-maktab |
| 49 | 9 | Mirzacho‘l tumani | 18-maktab |
| 50 | 10 | Paxtakon tumani | 4-maktab |
| 51 | 11 | Forish tumani | 15-maktab |
| 52 | 12 | Yangiobod tumani | 12-maktab |
| 53 | 13 | Jizzax shahar | 22-maktab |
| **Qashqadaryo viloyati bo‘yicha** | | | |
| 54 | 1 | G‘uzor tumani | 1- IDUM |
| 55 | 2 | Dehqonobod tumani | 70- IDUM |
| 56 | 3 | Qamashi tumani | 28-maktab |
| 57 | 4 | Qarshi tumani | 71-maktab |
| 58 | 5 | Qarshi shahar | 10-maktab |
| 59 | 6 | Kasbi tumani | 5-maktab |
| 60 | 7 | Koson tumani | 20-maktab |
| 61 | 8 | Ko‘kdala tumani | 6-maktab |
| 62 | 9 | Mirishkor tumani | 1- IDUM |
| 63 | 10 | Nishon tumani | 1- IDUM |
| 64 | 11 | Chiroqchi tumani | 25-maktab |
| 65 | 12 | Shahrisabz shahar | 13-maktab |
| 66 | 13 | Yakkabog‘ tumani | 21-maktab |
| **Navoiy viloyati bo‘yicha** | | | |
| 67 | 1 | Navoiy shahri | 5-maktab |
| 68 | 2 | Zarafshon shahar | 3-maktab |
| 69 | 3 | G‘ozg‘on shahri | 2-maktab |
| 70 | 4 | Karmana tumani | 5-maktab |
| 71 | 5 | Navbahor tumani | 3-maktab |
| 72 | 6 | Konimex tumani | 2-maktab |
| 73 | 7 | Nurota tumani | 19-maktab |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 74 | 8 | Qiziltepa tumani | 26-maktab |
| 75 | 9 | Xatirchi tumani | 20-maktab |
| 76 | 10 | Uchquduq tumani | 10-maktab |
| 77 | 11 | Tomdi tumani | 12-maktab |
| **Namangan viloyati bo‘yicha** | | | |
| 78 | 1 | Namangan shahar | 88-maktab |
| 79 | 2 | Yangi Namangan tumani | 86-maktab |
| 80 | 3 | Davlatobod tumani | 92-maktab |
| 81 | 4 | Kosonsoy tumani | 8-maktab |
| 82 | 5 | Mingbuloq tumani | 6-maktab |
| 83 | 6 | Namangan tumani | 5-maktab |
| 84 | 7 | Norin tumani | 12-maktab |
| 85 | 8 | To‘raqo‘rg‘on tumani | 9-maktab |
| 86 | 9 | Pop tumani | 40-maktab |
| 87 | 10 | Uychi tumani | 37-maktab |
| 88 | 11 | Uchqo‘rg‘on tumani | 8-maktab |
| 89 | 12 | Chortoq tumani | 22-maktab |
| 90 | 13 | Chust tumani | 15-maktab |
| 91 | 14 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 10-maktab |
| **Samarqand viloyati bo‘yicha** | | | |
| 92 | 1 | Samarqand shahar | 65-maktab |
| 93 | 2 | Kattaqo‘rg‘on shahar | 11-IDUM |
| 94 | 3 | Bulung‘ur tumani | 5-maktab |
| 95 | 4 | Jomboy tumani | 40-maktab |
| 96 | 5 | Ishtixon tumani | 8-maktab |
| 97 | 6 | Kattaqo‘rg‘on tumani | 23-maktab |
| 98 | 7 | Qo‘shrabot tumani | 89-maktab |
| 99 | 8 | Narpay tumani | 56-maktab |
| 100 | 9 | Nurobod tumani | 61-maktab |
| 101 | 10 | Oqdaryo tumani | 32-maktab |
| 102 | 11 | Pastdarg‘om tuman | 56-IDUM |
| 103 | 12 | Payariq tumani | 102-maktab |
| 104 | 13 | Paxtachi tumani | 12-maktab |
| 105 | 14 | Samarqand tumani | 33-IDUM |
| 106 | 15 | Toyloq tumani | 15-IDUM |
| 107 | 16 | Urgut tumani | 48-maktab |
| **Surxondaryo viloyati bo‘yicha** | | | |
| 108 | 1 | Termiz shahar | 26-maktab |
| 109 | 2 | Angor tumani | 1-maktab |
| 110 | 3 | Bandixon tumani | 17-maktab |
| 111 | 4 | Boysun tumani | 39-maktab |
| 112 | 5 | Denov tumani | 82-maktab |
| 113 | 6 | Jarqo‘rg‘on tumani | 36-maktab |
| 114 | 7 | Muzrabot tumani | 51-maktab |
| 115 | 8 | Oltinsoy tumani | 65-maktab |
| 116 | 9 | Sariosiyo tumani | 7-maktab |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 117 | 10 | Termiz tumani | 35-maktab |
| 118 | 11 | Uzun tumani | 1-maktab |
| 119 | 12 | Sherobod tumani | 5-maktab |
| 120 | 13 | Sho‘rchi tumani | 14-maktab |
| 121 | 14 | Qiziriq tumani | 40-maktab |
| 122 | 15 | Qumqo‘rg‘on tumani | 2-maktab |
| **Sirdaryo viloyati bo‘yicha** | | | |
| 123 | 1 | Boyovut tumani | 22-maktab |
| 124 | 2 | Guliston tumani | 29-maktab |
| 125 | 3 | Mirzaobod tumani | 5-maktab |
| 126 | 4 | Oqoltin tumani | 17-maktab |
| 127 | 5 | Sardoba tumani | 12-maktab |
| 128 | 6 | Sayxunobod tumani | 27-maktab |
| 129 | 7 | Sirdaryo tumani | 41-maktab |
| 130 | 8 | Guliston shahar | 4-maktab |
| 131 | 9 | Yangiyer shahar | 9-maktab |
| 132 | 10 | Shirin shahar | 1-maktab |
| 133 | 11 | Xovos tuman | 30-maktab |
| **Toshkent viloyati bo‘yicha** | | | |
| 134 | 1 | Angren shahar | 4-maktab |
| 135 | 2 | Chinoz tumani | 13-maktab |
| 136 | 3 | Piskent tumani | 6-maktab |
| 137 | 4 | O‘rta Chirchiq tumani | 42-maktab |
| 138 | 5 | Quyi Chirchiq tumani | 45-maktab |
| 139 | 6 | Chirchiq shahar | 14-maktab |
| 140 | 7 | Bo‘ka tumani | 21-maktab |
| 141 | 8 | Ohangaron shahar | 2-IDUM |
| 142 | 9 | Ohangaron tumani | 6-maktab |
| 143 | 10 | Toshkent tumani | 23-maktab |
| 144 | 11 | Bekobod shahar | 3-maktab |
| 145 | 12 | Yangiyo‘l tumani | 40-maktab |
| 146 | 13 | Zangiota tumani | 14-maktab |
| 147 | 14 | Oqqo‘rg‘on tumani | 31-maktab |
| 148 | 15 | Yuqori Chirchiq tuman | 15-maktab |
| 149 | 16 | Bo‘stonliq tumani | 3-maktab |
| 150 | 17 | Olmaliq shahar | 1-UDUM |
| 151 | 18 | Yangiyo‘l shahar | 3-maktab |
| 152 | 19 | Qibray tumani | 46-maktab |
| 153 | 20 | Nurafshon shahar | 13-maktab |
| 154 | 21 | Parkent tumani | 51-maktab |
| 155 | 22 | Bekobod tumani | 35-maktab |
| **Farg‘ona viloyati bo‘yicha** | | | |
| 156 | 1 | Marg‘ilon shahar | 10-maktab |
| 157 | 2 | Farg‘ona shahar | 26-maktab |
| 158 | 3 | Quvasoy shahar | 4-maktab |
| 159 | 4 | Qo‘qon shahar | 23-maktab |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 160 | 5 | Bag'dod tumani | 17 maktab |
| 161 | 6 | Beshariq tumani | 33-maktab |
| 162 | 7 | Buvayda tumani | 3-maktab |
| 163 | 8 | Dang'ara tumani | 1-maktab |
| 164 | 9 | Yozyovon tumani | 4-maktab |
| 165 | 10 | Oltiariq tumani | 20-IDUM |
| 166 | 11 | Qo'shtepa tumani | 7-maktab |
| 167 | 12 | Rishton tumani | 58 maktab |
| 168 | 13 | So'x tumani | 29-maktab |
| 169 | 14 | Toshloq tumani | 39-maktab |
| 170 | 15 | Uchko'prik tumani | 15-maktab |
| 171 | 16 | Farg'ona tumani | 63-maktab |
| 172 | 17 | Furqat tumani | 37-maktab |
| 173 | 18 | O'zbekiston tumani | 49-maktab |
| 174 | 19 | Quva tumani | 56-maktab |
| **Xorazm viloyati bo'yicha** | | | |
| 175 | 1 | Urganch shahar | 30-IDUM |
| 176 | 2 | Xiva shahar | 18-maktab |
| 177 | 3 | Bog'ot tumani | 30-maktab |
| 178 | 4 | Gurlan tumani | 16-maktab |
| 179 | 5 | Qo'shko'pir tumani | 13-maktab |
| 180 | 6 | Urganch tumani | 47- IDUM |
| 181 | 7 | Hazorasp tumani | 25-maktab |
| 182 | 8 | Xonqa tumani | 35-maktab |
| 183 | 9 | Xiva tumani | 8-maktab |
| 184 | 10 | Shovot tumani | 32-maktab |
| 185 | 11 | Yangiariq tumani | 29-maktab |
| 186 | 12 | Yangibozor tumani | 33- IDUM |
| 187 | 13 | Tuproqqal'a tumani | 2-maktab |
| **Toshkent shahar bo'yicha** | | | |
| 188 | 1 | Mirobod tumani | 158 maktab |
| 189 | 2 | Uchtepa tumani | 295-maktab |
| 190 | 3 | Yakkasaroy tumani | 100-maktab |
| 191 | 4 | Yashnobod tumani | 255-maktab |
| 192 | 5 | Yangihayot tumani | 329-maktab |
| 193 | 6 | Sergeli tumani | 104-maktab |
| 194 | 7 | Mirzo Ulug'bek tumani | 223-maktab |
| 195 | 8 | Mirzo Ulug'bek tumani | 190-maktab |
| 196 | 9 | Chilonzor tumani | 131-maktab |
| 197 | 10 | Olmazor tumani | 298 maktab |
| 198 | 11 | Bektemir tumani | 291-maktab |
| 199 | 12 | Yunusobod tumani | 97-maktab |
| 200 | 13 | Shayxontohur tumani | 102-maktab |